

## NAVBAHOR TUMANI ASABSAROY VA ARABXONA HUDUDLARINING TARIXIY-TOPONIMIK VA ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI

**Normurodova Dilnavoz**

*Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti o'zbek  
tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada Navbahor tumani hududidagi Asabsaroy va Arabxona qishloqlarining tarixiy-toponimik shakllanishi hamda etnomadaniy xususiyatlari manbashunoslik va arxiv ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Quyi Zarafshon vohasining qadimgi o'zlashtirilishi, arablar istilosi davridagi demografik siljishlar, migratsion qatlamlar, urug'-qabila tarkibi va toponimlarning kelib chiqishi masalalari ilmiy manbalarga tayangan holda yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Asabsaroy, Arabxona, Zarafshon vohasi, toponimika, arablar migratsiyasi, etnomadaniyat, karvon yo'li, irrigatsiya tizimi, qabila tarkibi, jome masjid, Buxoro amirligi, manbashunoslik.

## HISTORICAL-TOPONYMIC AND ETHNOCULTURAL FEATURES OF THE ASABSAROY AND ARABKHON TERRITORIES OF NAVBAHOR DISTRICT

**Normurodova Dilnavoz**

*Navoi State University 1st cycle master's student,  
Faculty of Languages, uzbek language and literature*

**Annotation.** This scientific article analyzes the historical-toponymic formation and ethnocultural features of the villages of Asabsaroy and Arabkhon in the Navbahor district based on source studies and archival data. The study covers the issues of the ancient development of the Lower Zarafshan oasis, demographic shifts during the Arab conquest, migration layers, clan composition and the origin of toponyms based on scientific sources.

**Keywords:** Asabsaroy, Arabkhana, Zarafshan oasis, toponymy, Arab migration, ethnoculture, caravan route, irrigation system, tribal structure, mosque, Bukhara Emirate, source studies.

### **Kirish**

Insoniyat tarixi davomida turli manzilgohlar odamlar yashashi, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishi uchun qulayligi sababli vujudga kela boshlagan. Qadimiy manzilgohlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida esa albatta daryo va dengizlarning shuningdek, tog' va tog'oldi hududlarning ahamiyati bilan alohida

baholanadi. Tiriklikning asosiy sharti suv omilining muntazam ravshda mavjudligi bilan bog'lanadi, mana shunday tarixiy o'tmishga ega manzilgohlardan biri Navoiy viloyati, Navbahor tumani hududidagi Asabsaroy va Arabxona qishloqlari bo'lib, bu hududlar Quyi Zarafshon vohasining qadimiy aholi maskanlari sirasiga kiradi. Ushbu hududlarda odamlar o'troq yashash jarayonlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Manbalarda qayd etilishicha, Politimet (Zarafshon) daryosi bo'yida Spitamen va Yunon-Makedon qo'shinlari o'rtasida yirik janglar<sup>2</sup> bo'lganligi ham bu hududlarda aholi milloddan avvalgi V-IV asrlarda istiqomat qilganligidan darak beradi, miloddan avvalgi 328-yilda Makedoniyalik Aleksandr tomonidan Sug'd hududida amalga oshirilgan harbiy yurishlar va qirg'inlar natijasida aholi qatlamlarining bir qismi jon saqlash maqsadida Zarafshon daryosi quyi oqimiga, chakalakzor va to'qayzorlar bilan qoplangan, suvga boy yangi yerlarga ko'chib o'tgan. Natijada qisqa muddat ichida Zarafshon havzasi bo'ylab ko'plab dehqonchilik maskanlari shakllangan. Asabsaroy hududida ham dastlab sug'diy aholi manzilgohlari paydo bo'lib, ular o'rmonzor va to'qayzorlarni o'zlashtirib, obod dehqonchilik maskanlariga aylantirgan.

### **Asosiy qisim**

Hududning arablar fathi davridagi ahamiyati ayrim toponimik izlarda saqlanib qolgan. Masalan, Navbahor tumani Duldul qishlog'i nomi Hazrati Alining afsonaviy oti Duldul bilan bog'lanadi. Garchi Hazrati Ali Markaziy Osiyoga kelmagan bo'lsa-da, islom dini qaror topish jarayonida mahalliy aholining payg'ambar avlodiga nisbatan e'tiqodi kuchli bo'lgan va joy nomlari bilan bog'liq ramziy ifodalar yuzaga kelgan. Arab xalifaligi Movarounnahrni zabt etgach, hududni nafaqat iqtisodiy, balki diniy-siyosiy jihatdan mustahkamlash siyosatini yuritdi. Strategik nuqtalarda, savdo va dehqonchilik rivojlangan maskanlarda arab oilalari joylashtirildi. Tarixchi Balazuriy ma'lumotiga ko'ra, 671-yilda Basra va Kufa shaharlaridan qariyb 50 ming arab oilasi Movarounnahr shaharlariga yuborilgan.<sup>3</sup> Narshahiy esa Qutayba ibn Muslim Buxoroni egallagach, mahalliy aholi xonadonlarining yarmini arablar bilan to'ldirganini qayd etadi. Tabiiyki, bu demografik siyosat Buxoro va uning atrof hududlariga, jumladan Zarafshon vohasiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shu tariqa Asabsaroy hududida sug'diy va arab aholisi yonma-yon yashay boshlagan. VIII–IX asrlarda arablarning kelib joylashuvi davom etgan, keyingi asrlarda esa boshqa qabila va urug'larning migratsiyasi kuzatilgan. Hududga keyinchalik o'zbek qavmlaridan saroy va ochamayli urug'lari vakillari ko'chib kelgan. Saroy qabilasi tarkibida chemsaroy, qo'ng'irotsaroy, jomonsaroy, qirg'izsaroy, mo'jor saroy, oltintamg'alisaroy, qipchoqsaroy, jalang'och saroy kabi tarmoqlar mavjud bo'lgan. Ochamayli esa qo'ng'irot, kenagas, yuz, do'rman, nayman, qurama, marqa kabi qabilalar tarkibida uchraydigan urug'

<sup>2</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Spitamen>

<sup>3</sup> Яхья ибн Джабир ибн Дауд аль-Балазури Китаб футух ал-булдан

nomi sifatida qayd etiladi. Ochamayli qishlog‘i keyinchalik Armijon deb yuritilgan.<sup>4</sup> Mahalliy aholi esa “Armijon” qishlog‘i nomini Buxoro amiri Abulaxad va Olimxonga bog‘lashadi, XIX asr so‘ngida bu yerda amir Miroxurining (otxona boshlig‘i) yozgi ko‘shki bo‘lganligi, Karmana beki sifatida Buxoro valiaxdlari dam olish uchun Zarafshon daryosi bo‘yiga kelganligi haqida ma‘lumotlar berishadi, shuningdek Buxoro amirlari tomonidan “**Oromi - Jon**” deb atalgan hududning Sovet manablarida rus tili grammatik talqini asosida “Armijan” shaklida qo‘llanishi dastlab rasmiy hujjatlarda, keyinchalik umumiy nom sifatida ishlatila boshlangan.

Hududning muhim xususiyatlaridan biri uning qadimiy karvon yo‘lida joylashganidir. Karmana orqali Buxoro va G‘ijduvonni bog‘lab turgan savdo yo‘li Asabsaroy hududidan o‘tgan. Shu bois bu yerda katta karvonsaroy qurilgan. Mazkur karvonsaroy xarobalari 1965-yilgacha saqlanib qolgan. Uning o‘ng qismida yashagan aholi Karvon, chap qismida yashaganlar esa Saroy deb atalgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab qishloq Arabsaroy nomini olgan. Bu nom arab qatlamining tarixiy izini va “saroy” komponenti orqali o‘zbek urug‘ nomlari bilan uyg‘unlashgan murakkab toponimik qatlamni aks ettiradi.

Qishloqda hunarmandchilik rivojlangan bo‘lib, xususan, tilla buyumlar yasash va ta‘mirlash ustaxonalari mashhur bo‘lgan. Ta‘lim tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan, nafaqat o‘g‘il bolalar, balki qizlar ham savod olgan. Bu fakt hududning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Arabxona qishlog‘i nomi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “arablar yashaydigan joy” ma‘nosini bildiradi. Arablarning bu hududga kelib joylashuvi arablar istilosi davridan XVI asrgacha davom etgan migratsion jarayonlar bilan bog‘liq deb qaraladi. Arab xalifaligi mahalliy aholiga hukmron qatlam vakillarini joylashtirish orqali assimilyatsiya siyosatini olib borgan. Bu jarayonda islom dini va madaniyati asosiy vosita bo‘lgan. Markaziy Osiyo xalqlari islomni nafaqat qabul qilgan, balki uni yuqori sivilizatsiya darajasiga ko‘targan.

Akademik Vasily Bartold ma‘lumotiga ko‘ra, shimoli-sharqiy Arabistondan kelgan arablar Eron, keyinchalik Xuroson va Movarounnahr hududlarida uzoq yashab, fors tilini ham o‘zlashtirgan. Temuriylar va Shayboniylar davrida Eron va Afg‘onistondan arab elatlari ko‘chirib keltirilgan. Uzoq vaqt forsiy muhitda yashagan arablar fors tilida so‘zlashgan, shu bilan birga turkiy tilni ham egallagan. Samanidlar davlatida rasmiy til fors tili bo‘lganligi sababli hukmron qatlamga yaqinlashish maqsadida arablar ham fors tilini faol qo‘llagan.<sup>5</sup> Rus o‘lkashunosi N.Sitnyakovskiy 1900-yilda Zarafshon vodiysidagi 2800 qishloq nomini ro‘yxatga olgan bo‘lib, shundan 78 tasi “Arab” komponenti bilan bog‘liq ekanini qayd etgan.<sup>6</sup> Bu toponimik qatlam hududda arab etnik izining keng tarqalganini

<sup>4</sup> Қораев С. Географик номлар маъноси. Т.: "Ўзбекистон", 1978

<sup>5</sup> Four Studies on the History of Central Asia -Volumes by V. V. Barthold (Archive.org)

<sup>6</sup> Ситняковский Н. К Известия Туркестанского отдела Императорского Русского географического общества Том VII 1907.

ko'rsatadi. Arabxonona qishlog'i Beshrobot qishlog'ining janubida, Yangiqo'rg'on, Marjonxotun, Oqoltin qishloqlari oralig'ida joylashgan. Akademik A.Muhammadjonov muharrirligida chop etilgan "Buxoro amirligi aholi punktlari" asarida Arabxonona Yangiqo'rg'on amlokligida alohida mavze sifatida qayd etilib, uning tarkibida Beshmulla, Etak (Itak), Sabungaron, Qishloqi Sar-i Bozor kabi qishloqlar bo'lganligi ko'rsatiladi.<sup>7</sup>

Arabxonona yerlari Karmana bekligining asosiy sug'orish tarmoqlari -Konimex arig'i, Sakson arig'i va Arabxonona arig'i orqali sug'orilgan. Zarafshon daryosi havzasiga yaqin joylashganligi sababli hududning bir qismi to'qayzor va mayda qo'llar bilan qoplangan bo'lib, qishloqlarni mayda bo'laklarga ajratgan. Arabxonona mavzesi o'n ikki kichik qishloqdan -Arabxonona, Chetrabot, Mehchagar, Gadoyqishloq, Meshkobon, Garoy, Ko'hron, Kindiro, Xuniko, Boyho, Ma'mur, Yarmigaronlardan iborat bo'lgan. Buxoro qushbegisi arxiv hujjatlarida Gadoyqishloq, Arabxonona, Mehchagar qishloqlarining o'z masjidiga ega bo'lgani qayd etilgan. Arabxonona jome masjidi har hafta juma namozi o'qiladigan markaziy diniy maskan bo'lib, yuzdan ortiq kishini sig'dira olgan. Old tomoni baland peshtoq-ayvondan iborat namozxonona 4 metrli yog'och ustunlarga tayangan. Ushbu ustunlar 1960-yillargacha saqlanib, 1990-yillarda ikki qismga bo'linib, hozirgi masjid ayvoniga o'rnatilgan.<sup>8</sup>

Yana bir boshqa manbalarga yuzlansak ushbu joylar turlicha tasvirlangan. Ya'ni ko'proq **toponimik va etnografik izoh** tarzida berilgan. Unda Arabsaroy nomi ikki komponentdan -"arab" (etnonim) va "saroy" (hashamatli bino, omborxonona ma'nolari)dan tashkil topgani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, "saroy" nomli o'zbek qabilasi mavjudligi va uning 92 bovli o'zbek urug'lari tarkibiga kirishi qayd etiladi. Qabila tarmoqlari (chemsaroy, qo'ng'irotsaroy, jomonsaroy, qipchoqsaroy va boshqalar) tilga olinib, Arabsaroy nomi "arab xalqi va saroy urug'i vakillari birgalikda yashagan joy" degan ma'noda izohlanadi. Bu talqin yuqoridagi tarixiy matndagi urug'-qabila migratsiyasi haqidagi ma'lumotlar bilan mazmunan mos keladi.

Arabxonona toponimi esa ushbu manbada bevosita "arablar uyi", "arablar yashaydigan joy" deb talqin qilinadi. VIII-IX asrlarda va keyingi davrlarda arablarning Markaziy Osiyoga kelishi, keyinchalik o'zbek va tojik xalqlari tarkibiga singib ketgani qayd etiladi. 1926-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, arab xo'jaliklari respublika hududida 5219 ta bo'lib, umumiy xo'jaliklarning 0,7 foizini tashkil etgani<sup>9</sup> keltiriladi. Shuningdek, M.S. Andreyev, I.N. Vinnikov, S.A. Volgin, B.X. Karmishov kabi etnograf olimlarning Markaziy Osiyo arablarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlari eslatiladi. Ularning fikricha, mahalliy arablar o'tmishda arab tilining alohida dialektidan foydalangan, ammo vaqt

<sup>7</sup>Населенные пункты Бухарского Эмирата (конец XIX-нач. XX в. вiпод ред. А. Мухамеджанов. Т. "Университет", 2001.

<sup>8</sup>Корaeв С. Географик номлар маъноси. Т.: "Ўзбекистон", 1978

<sup>9</sup><https://abashin.org/2025/04/09/vsesoyuznaya-perepis-naseleniya-1926-goda-uzbekskaya-ssr-iii/>  
O'zSSRga oid Butunittifoq aholini ro'yxatga olish natijalari

o‘tishi bilan til assimilyatsiyaga uchragan.<sup>10</sup> Tilning assimilyatsiyaga uchrashi, diniy birlik va qulay geografik hududning mavjudligi arabiy va turkiy xalqlarning yagona etnognezini shakllanishiga olib kelgan.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Navbahor tumanidagi Asabsaroy (Arabsaroy) va Arabxona hududlari Quyi Zarafshon vohasining qadimiy aholi maskanlari bo‘lib, ularning shakllanishi sug‘diy davr, arablar istilosi va keyingi migratsion jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Miloddan avvalgi davrlardan boshlab vohada dehqonchilik manzilgohlari vujudga kelgan, arablar fathi davrida esa hududga arab oilalari joylashtirilishi natijasida etnik tarkib murakkablashgan.

Arabsaroy toponimi **“arab”** etnonimi hamda **“saroy”** komponenti (urug‘ nomi yoki ijtimoiy-ma‘muriy birlik) bilan bog‘liq bo‘lib, arablar va saroy urug‘i vakillarining birgalikdagi yashashini anglatadi. Arabxona esa **“arablar yashaydigan joy”** ma‘nosini bildirib, VIII–IX asrlardan boshlab arab aholi qatlamining mavjudligini tasdiqlaydi. Keyingi asrlarda arablar mahalliy o‘zbek va tojik aholisi bilan etnik va til jihatdan assimilyatsiyalashgan. Hududning karvon yo‘llari tizimidagi o‘rni, irrigatsiya tarmoqlari, jome masjidlar, hunarmandchilik markazlari va urug‘-qabila tarkibi bu qishloqlarning nafaqat toponimik, balki tarixiy-etnomadaniy jihatdan ham muhim maskan bo‘lganini ko‘rsatadi. Demak, Asabsaroy va Arabxona nomlari ko‘p asrlik migratsiya, madaniy sintez va tarixiy jarayonlarning mahsuli sifatida shakllangan murakkab tarixiy qatlamni aks ettiradi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Spitamen>;
2. Яхья ибн Джабир ибн Дауд аль-Балазури Китаб футух ал-булдан;
3. Қораев С. Географик номлар маъноси. Т.: "Ўзбекистон", 1978;
4. Four Studies on the History of Central Asia -Volumes by V. V. Barthold (Archive.org);
5. Ситняковский Н. К Известия Туркестанского отдела Императорского Русского географического общества Том VII 1907.;
6. Населенные пункты Бухарского Эмирата (конец XIX-нач. XX в. вiпод ред. А. Мухамеджанов. Т. "Университет", 2001.;
7. Қораев С. Географик номлар маъноси. Т.: "Ўзбекистон", 1978;
8. <https://abashin.org/2025/04/09/vsesoyuznaya-perepis-naseleniya-1926-goda-uzbekskaaya-ssr-iii/> O‘zSSRga oid Butunittifoq aholini ro‘uxatga olish natijalari;
9. Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро, Т. "Фан", 1991.

<sup>10</sup> Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро, Т. "Фан", 1991.